# ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN

RUS ADABIYOTINING SO`NMAS QUYOSHI



(1799-1837)

- 1799- YILNING 6- IYUNIDA MOSKVA SHAHRINING NEMISLAR KO'CHASIDA YASHOVCHI QADIMIY DVORYANLARDAN BO'LMISH ISTE'FODAGI MAYOR SERGEY PUSHKIN OILASIDA TUG'ILDI.



A.S.PUSHKINNING OTA-ONASI





- ***Aleksandr Pushkinning hayotidagi hal qiluvchi voqea uning 1811- yilning 19-oktabrida Rossiya poytaxti Sankt Peterburg yaqinidagi Sarskoye selo imperatorlik litseyiga qabul etilganligi bo‘ldi.***
- ***Bu yerda bo‘lajak shoir ijodkorlik muhiti va erkin fikr bilan tanishdi hamda Ivan Pushin, Anton Delvig, Vilgelm Kyuxelbeker singari bir umrlik chin do‘stlar orttirdi.***



## Ilk she’r

- Yosh shoirning dastlabki she’ri 1814- yilda litseyda chiqadigan «Ovrupo xabarlari» jurnalida chop etildi. Litseyda o‘qib yurganidayoq Pushkinning tengsiz iste’dod egasi ekanligi ayon bo‘lgandi.
- O‘limidan ikki yil oldin litseydagi imtihonlarning birida qatnashgan keksa Derjavin Pushkinning she’rini eshitgach, uning buyuk shoir bo‘lajagini bashorat qiladi.

- Litseydan keyingi dastlabki yillardayoq, Pushkin ijodiy cho‘qqilarni birin-ketin zabt eta boshladi.
- 1817- yilda mashhur «Erkinlik» she’ri yozildi.
- 1820- yilda «Ruslan va Ludmila», «Mis chavandoz» dostonlari dunyoga keldi.

# Yuksak e’tirof



- «Ruslan va Lyudmila»ning qo‘lyozmasi bilan tanishgan mashhur shoir Jukovskiy Pushkinga: **«G‘olib shogirdga mag‘lub ustozdan»,** — degan yozuv bilan o‘z portretini sovg‘a qildi. Bu Aleksandr Pushkinning ulkan g‘alabasi, uning shoir sifatidagi chinakam tan olinishi edi.

- 1830-yilga kelib, o‘n yildan beri yozilayotgan «Yevgeniy Onegin» she’riy romaniga nuqta qo‘yildi.
- 30-yillarda Pushkinning «Belkin qissalari», «Toppon xonim», «Dubrovskiy» singari nasriy asarlari chiqdi.

- 1836- yilda Pushkinning mashhur «Kapitan qizi» asari tugallandi.
- Bu asarda turli personajlar taqdiri misolida inson hayotini rejalashtirib bo‘lmasligi, u har daqiqada kutilmagan o‘zgarishlarga yuz tutishi mumkinligi g‘oyat ta’sirli aks ettirilgan.



- Dushmanlar turli mish-mishlar tarqatib, Gollandiya elchisining tutingan o‘g‘li Dantes bilan Pushkinning orasini butunlay buzadilar. Natijada, 1837- yilning 25- yanvarida Pushkin Dantesga haqoratomuz xat yozib, uni duelga chorlaydi. 27- yanvar kuni duel bo‘lib o‘tadi va buyuk shoir qattiq jarohatlanadi.
- Ikki kun azoblanib yotgan A. S. Pushkin 1837- yilning 29- yanvarida olamdan o‘tadi.



# PUSHKIN TARJIMONLARI

- XX ASR BOSHIDAN BUYON BUYUK RUS SHOIRINING ASOSIY ASARLARI CHO'LPON, G'. G'ULOM, OYBEK, MIRTEMIR, E. VOHIDOV, A. ORIPOV, MUHAMMAD ALI, A. SUYUN,H. XUDOYBERDIYEVA, U. AZIM, M. KENJABEK SINGARI IJODKORLAR TOMONIDAN QAYTA-QAYTA O'ZBEKCHALASHTIRILGAN.





E'TIBORINGIZDAN XURSANDMIZ!